

*Research Article*

**EASY TO USE INTERACTIVE METHODS OF DISTANCE LEARNING FOREIGN LANGUAGES**

*V.M. Bozorova<sup>1</sup>*

<sup>1</sup>Department of foreign languages in the Humanities, faculty of foreign languages, Bukhara state University, Uzbekistan.

DOI: [http://doi.org/10.15350/UK\\_6/11.28](http://doi.org/10.15350/UK_6/11.28)

---

*Abstract*

This article deals with distance education and the convenience of using interactive methods in the process of learning foreign languages.

*Key words:* distance learning, interactive methods, collaboration, creative environment, independent education, double communication.

Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi talabalarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchining faol munosabati, bir – birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'qitilmasin, darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsiga tegishli muammolarga o'quvchilarni jalb etish, ularning harakatini faollashtirish va natijada o'zlashtirishlarni ta'minlashi lozim.

Masofaviy ta'lim iborasi bugungi kunda ko'pchilikka ma'lum. Masofaviy ta'lim respublikamizda ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan usul bo'lib, hozirgi kunda bu jarayonga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Barcha oliy o'quv yurtlarida kompyuter sinflari tashkil etilgan bo'lib, ular internet global tarmog'iga ulanish asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Masofaviy o'qitishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1) O'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi (pedagog) ilm beradi, o'quvchi-talabalar esa faqat berilgan materialni o'qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o'qitish asosida esa o'quvchi-talabalarining o'zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi hamda o'z o'rnida mehnat ta'limi olishini rag'batlantiradi.

2) Mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish boshlang'ich, o'rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. O'qituvchilar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

3) Ish joyidagi katta o'zgarishlar. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

4) O'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish asosida ta'lim olish Oliy o'quv yurti tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarining boshqalardan ustunligi ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchi (pedagog)lar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o'qituvchi (pedagog) auditoriyada o'qitish shartlaridan holi bo'lishi kerak.

Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashinuvi jadalligi

talaba va o'qituvchining orasida ma'lumot almashinuvidan ko'ra yuqoriroq, shuning uchun o'quv jarayonining barcha ishtirokchilariga elektron manzillar ma'lum qilish lozimdir. Interfaol usuldan foydalanilganda bir vaqtda bir nechta masalani hal qilish imkonini beradi. Bulardan asosiy o'quvchilarning muloqot olib borishi bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol ta'lim metodini tanlash bu ayni maqsadga muvofiq ish. Chunki interfaol ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlarini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ana shularni inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkin. Interfaol metod chet tillarini masofaviy o'qitish jarayonida ko'plab ijobiy natijalarga olib keladi.

Chet tillarini masofaviy o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning ishtirokini faollashtiradi, ularni maksimal natijaga samaraga erishishga undaydi. Shuningdek, interfaollik, o'qituvchilarga kursga murakkabroq materiallarni kiritishga yordam beradi. Albatta interfaol darslarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Bular, o'quv – biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi. Interfaol mashg'ulotlarida barcha o'quvchilarni kerakli nazorat etib borishning imkoniyati bo'lavermaydi. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining ro'li past bo'lishi hollari kuzatiladi. Guruhlarda o'quv jarayoni kechayotgan kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Masofaviy ta'limda, shuningdek, chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ijobiy natijalarni ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir – birlariga namoyish etadilar. Bir – birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir – birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo'lib, vaqt o'tganini bilamay qoladilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar.

#### *References*

- Abduqodirov A. Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan. 2009.  
Aripov M. Tillayev A. Masofaviy ta'lim. // Fizika. Matematika va informatika. 2002.